

AUTIZM SPEKTRIDAGI BOLALAR BILAN INKLYUZIV TA'LIMNING SAMARALI USULLARI

Ahmatova Anisa Rasul qizi

Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Murojaat uchun Tel: +998947473999 Gmail: anisaaxmatovah@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20360383>

Annotatsiya. Mazkur maqolada autizm spektridagi bolalar bilan inklyuziv ta'lim sharoitida samarali ishlash usullari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tamoyillarining keng joriy etilishi autizm spektri buzilishiga ega bo'lgan bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, ularning ijtimoiy, nutqiy va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Maqolada autizmli bolalarga xos bo'lgan muloqotdagi qiyinchiliklar, nutq rivojlanishining kechikishi, ijtimoiy moslashuvdagi muammolar hamda ularning psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim muhitida qo'llaniladigan samarali pedagogik va psixologik yondashuvlar, jumladan, multisensor metodlar, vizual qo'llab-quvvatlash, strukturaviy o'qitish, ijtimoiy hikoyalar, qo'shma o'yin faoliyatlari hamda individual yondashuv asosidagi mashg'ulotlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida autizm spektridagi bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligining muhim o'rni ochib beriladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim jarayonida to'g'ri tanlangan metod va yondashuvlar orqali autizmli bolalarning ijtimoiy moslashuvi, nutqiy faolligi hamda bilish jarayonlari sezilarli darajada rivojlanadi. Mazkur maqola inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, psixologlar, logopedlar va defektologlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: autizm, inklyuziv ta'lim, autizmli bolalar, pedagogik yondashuv, psixologik yordam, ijtimoiy moslashuv, multisensor metodlar, qo'llab-quvvatlash, o'yin terapiyasi, kommunikativ rivojlanish, individual yondashuv, korreksion-pedagogik faoliyat, inklyuziv muhit.

Kirish

Bugungi kunda autizm spektr buzilishi (ASB) butun dunyoda keng tarqalgan neyro-rivojlanish buzilishlaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har 100 nafar boladan kamida 1 nafari autizm spektriga mansub bo'lib, bu holatning ortib borayotganini ko'rsatadi.

ASB genetik, biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanib, har bir bolada o'ziga xos klinik ko'rinishlar bilan namoyon bo'ladi[1]. Autizm spektridagi bolalarda nutq rivojlanishining kechikishi, ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar va hissiy ifodalanishning cheklanganligi kuzatiladi.

Bu holatlar ayniqsa maktabgacha va kichik maktab yoshida ta'lim jarayoniga moslashuvni murakkablashtiradi. Autizm sindromi nafaqat tibbiy, balki muhim pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida ham o'rganiladi. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash jarayonida psixolog, pedagog va logoped mutaxassislarining hamkorligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu yondashuv bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlanishiga xizmat qiladi[2].

Shu boisdan, mazkur maqolada autizm spektridagi bolalar bilan inklyuziv ta'lim sharoitida samarali ishlashning pedagogik va logopedik yondashuvlari, shuningdek, psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya

Feruzaxon Usmanovna Qodirova va Sevinch Abrorovna Axrorovnaning “Autizm sindromli bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning korreksion-pedagogik tizimi” nomli maqolasida quyidagicha so‘z boradi autizm spektridagi bolalarda muloqot va nutq rivojlanishining o‘ziga xos buzilishlari keng yoritilgan. Muallifning ta‘kidlashicha, autizmlil bolalarda muloqot ko‘nikmalari odatiy nutq rivojlanishidan farq qiladi va pragmatik nutqdagi buzilishlar asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda autizm spektridagi bolalarda kattalar nutqiga javob qaytarmaslik, hatto o‘z ismiga e‘tibor bermaslik, nutqni stereotip tarzda qo‘llash, so‘z va tushunchalarni noodatij kontekstda ishlatish kabi holatlar kuzatilishi qayd etilgan. Shuningdek, suhbatni boshlash va davom ettirish ko‘nikmalarining yetishmasligi, olmoshlarni almashtirish, prosodik buzilishlar hamda noverbal muloqotdagi cheklanishlar ularning asosiy xususiyatlari sifatida ko‘rsatiladi. Adabiyotlarda sog‘lom bolalarda nutq rivojlanishi odatda monologdan dialogga o‘tish orqali shakllanishi ta‘kidlanadi. Biroq autizm spektridagi bolalarda bu jarayon buzilgan bo‘lib, ko‘pincha monolog nutq saqlanib qoladi, dialogik muloqot esa yetarli darajada shakllanmaydi. Shuningdek, ilmiy manbalarda autizmlil bolalarda ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning cheklanganligi, hissiy holatlarni tushunishdagi qiyinchiliklar hamda taqlid qilish (imitatsiya) ko‘nikmalarining sust rivojlanganligi alohida qayd etiladi. Bu holatlar ularning muloqot jarayoniga faol kirishishini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, autizm spektridagi bolalarda xulq-atvor va sensor xususiyatlar ham muloqot va ta‘lim jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ular faoliyatni boshlash va bir harakatdan ikkinchisiga o‘tishda qiyinchilikka duch keladilar. Sensor sezgirlikning yuqoriligi, kiyim yoki oziq-ovqatga nisbatan tanlab munosabat, turli qo‘rquvlar va noadekvat reaksiyalar ham ko‘p uchraydigan holatlardir.

Ushbu tahlillar inklyuziv ta‘lim jarayonida autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, korreksion-pedagogik tizim va maxsus metodikalarning ahamiyatini asoslaydi. Boybotayeva Zarifa Akbar qizining “Autizm sindromli bolalar bilan ishlashda psixolog mutaxassis bilan hamkorlik texnologiyasi” nomli maqolasida autizm spektridagi bolalar bilan ishlash jarayonida psixolog mutaxassislarning o‘rni va multidisiplinar hamkorlikning ahamiyati yoritilgan.

Muallifning ta‘kidlashicha, autizmlil bolalar bilan samarali ishlashda avvalo bolaning xulq-atvori, hissiy holati va muloqot ko‘nikmalarini chuqur o‘rganish muhim hisoblanadi. Shu asosda bolaning individual ehtiyojlariga mos terapevtik va pedagogik dasturlar ishlab chiqiladi.

Maqolada psixolog, pedagog, logoped va boshqa mutaxassislarning o‘zaro hamkorligi inklyuziv ta‘lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Ayniqsa, muntazam axborot almashinuvi, bolaning rivojlanishini birgalikda kuzatish hamda individual yondashuv asosida ishlash autizm spektridagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, muallif ota-onalar bilan hamkorlikka ham alohida e‘tibor qaratadi.

Ota-onalarni autizm sindromi haqida ma‘lumotlantirish, uy sharoitida bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam ko‘rsatish ta‘lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Maqolada autizmlil bolalar uchun maxsus ta‘lim strategiyalaridan foydalanish zarurligi ham qayd etilgan.

Jumladan, o‘yin terapiyasi, vizual yordamlar, interaktiv metodlar va multimedia vositalari orqali bolalarning muloqot hamda ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ta‘kidlanadi. Ushbu yondashuvlar inklyuziv ta‘lim muhitida autizm spektridagi bolalarning ta‘lim jarayoniga faol moslashishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar

Autizm spektr buzilishi bolalarning nutq, muloqot va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga sezilarli taʼsir koʻrsatadigan murakkab neyro-rivojlanish holati hisoblanadi. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlarda autizm spektridagi bolalarda asosan ijtimoiy munosabatga kirishishdagi qiyinchiliklar, hissiy yaqinlikning sustligi, nutq rivojlanishining kechikishi hamda noverbal muloqotdagi buzilishlar koʻp uchrashi taʼkidlanadi. Feruzaxon Usmanovna Qodirova oʻz tadqiqotida autizimli bolalarda pragmatik nutqning buzilishi, suhbatni boshlash va davom ettirishdagi qiyinchiliklar hamda dialogik muloqotning yetarli shakllanmasligini asosiy muammolardan biri sifatida koʻrsatadi. Bu holat inklyuziv taʼlim jarayonida bolalarning jamoaga moslashuvini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, mamlakatimizda inklyuziv taʼlimni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ham autizm spektridagi bolalarni qoʻllab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hukumat qarori bilan umumtaʼlim maktablarida inklyuziv taʼlimni joriy etish rejasi belgilangan boʻlib, unga koʻra 2025-yilga kelib maxsus taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning 40 foizini umumtaʼlim maktablariga jalb etish koʻzda tutilgan.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi Konvensiyasi hamda “Nogironlar huquqlari deklaratsiyasi” inklyuziv taʼlimni rivojlantirishda muhim xalqaro huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi. Davlatimiz tomonidan nogironligi boʻlgan shaxslarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilayotgan tashabbuslar ham autizimli bolalarning taʼlim olish huquqini taʼminlashda muhim omil hisoblanadi [1]. Boyboyeva Zarifa Akbar qizining ilmiy qarashlarida esa autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda psixolog, pedagog va logopedlarning oʻzaro hamkorligi muhim omil sifatida baholanadi. Ayniqsa, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashgʻulotlar, oʻyin terapiyasi, vizual yordamlar va interaktiv metodlar bolalarning kommunikativ koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali natija berishi qayd etiladi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, inklyuziv taʼlim muhitida autizimli bolalar bilan ishlashda yagona metod bilan cheklanib qolish yetarli emas. Har bir bolaning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mos yondashuvlarni tanlash muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligi asosida olib borilgan korreksion-pedagogik ishlar bolaning ijtimoiy moslashuvi, nutqiy faolligi va taʼlim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, autizm spektridagi bolalar bilan inklyuziv taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, vizual qoʻllab-quvvatlash hamda multisensor metodlardan foydalanish ularning bilish jarayonlarini faollashtirib, muloqot koʻnikmalarining rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bu esa inklyuziv taʼlim samaradorligini oshirish bilan birga autizimli bolalarning jamiyatga moslashuv imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Muhokama

Autizm spektr buzilishi bolalarning ijtimoiy munosabatlari, nutq rivojlanishi va taʼlim jarayoniga moslashuviga bevosita taʼsir koʻrsatadigan murakkab neyro-rivojlanish holati hisoblanadi. Tahlil qilingan ilmiy manbalarda autizimli bolalarda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, hissiy yaqinlikning sustligi, dialogik nutqning yetarli shakllanmasligi hamda noverbal muloqotdagi buzilishlar asosiy muammolardan biri sifatida koʻrsatib oʻtiladi. Bu esa inklyuziv taʼlim jarayonida bolaning jamoaga moslashuvi va tengdoshlari bilan samarali munosabat oʻrnatishini murakkablashtiradi. Feruzaxon Usmanovna Qodirovaning ilmiy qarashlarida autizimli bolalarda pragmatik nutqning buzilishi, suhbatni davom ettirishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy oʻzaro taʼsirning sustligi alohida taʼkidlanadi. Boyboyeva Zarifa Akbar qizi esa autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda psixolog, pedagog va logopedlarning oʻzaro hamkorligi muhim natija berishini qayd etadi.

Ayniqsa, individual yondashuv asosida olib borilgan korreksion mashg'ulotlar, o'yin terapiyasi, vizual yordamlar va interaktiv metodlar bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rinadi. Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, autizmli bolalar bilan ishlashda faqat bitta standart metoddan foydalanish yetarli emas. Chunki har bir bolaning rivojlanish darajasi, psixologik holati va ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli inklyuziv ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Agar ta'lim jarayonida bolaning qiziqishi, sensor xususiyatlari va hissiy holati inobatga olinsa, uning ijtimoiy moslashuvi hamda ta'limdagi faollig sezilarli darajada ortadi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va xalqaro huquqiy hujjatlar ham autizm spektridagi bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq amaliyotda ayrim muammolar, jumladan, malakali mutaxassislar yetishmasligi, pedagoglarning maxsus tayyorgarligi pastligi va ota-onalarning yetarli ma'lumotga ega emasligi inklyuziv ta'lim samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Shaxsiy fikrimcha, autizm spektridagi bolalar bilan ishlashda eng muhim jihat — ularga oddiy “kasallik” sifatida emas, balki individual imkoniyat va ehtiyojlarga ega shaxs sifatida yondashishdir. Chunki to'g'ri tashkil etilgan pedagogik va psixologik yordam orqali autizmli bolalarda ham muloqot, ijtimoiy moslashuv va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini sezilarli rivojlantirish mumkin. Shu bois inklyuziv ta'lim muhitida zamonaviy metodlardan foydalanish va mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, autizm spektr buzilishi bolalarning nutq, muloqot va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bunday bolalar bilan ishlashda individual yondashuvga asoslangan pedagogik, psixologik va logopedik yordam muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim esa autizm spektridagi bolalarning tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi, ijtimoiylashuvi va mustaqil rivojlanishi uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, autizmli bolalarda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, pragmatik nutq buzilishlari va ijtimoiy faollikning sustligi ko'p uchraydi. Biroq o'yin terapiyasi, vizual yordamlar, multisensor metodlar hamda interaktiv yondashuvlar orqali ularning kommunikativ ko'nikmalari va bilish faoliyatini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, pedagog, psixolog, logoped va ota-onalar hamkorligi inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ham autizm spektridagi bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Autizmli bolalarga to'g'ri va individual yondashuv asosida yordam ko'rsatilsa, ularning ijtimoiy moslashuvi, muloqot ko'nikmalari va ta'limdagi faolligini sezilarli darajada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonova, M. Autizmga ega bolalarda nutqni rivojlantirish metodlari. Toshkent, 2022.
2. Ergasheva, N. Logopediya asoslari. Toshkent, 2021.
3. Qodirova, Z. Inklyuziv ta'lim metodikasi. Samarqand, 2020
4. Vygotsky L.S. – Psixologik rivojlanish nazariyasi
5. Ихсанова С. В. Система диагностико-коррекционной работы с аутичными

6. дошкольниками. — СПб.: ООО «ИЗДАТЕЛЬСТВО «ДЕТСТВО-ПРЕСС», 2011.— 208 с
7. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.:«Владос», 2013.83-б
Поалар
8. [https://ilmijanjuanlar.uz/uploads/conferences/00127/127_i_20251221_232828_2%20\(43\).pdf](https://ilmijanjuanlar.uz/uploads/conferences/00127/127_i_20251221_232828_2%20(43).pdf)
9. <https://share.google/VypEwuAJY6dqVLJ00>
10. <https://share.google/ug6ImlUMuFcOez6nc>
11. <https://share.google/PDrKwMNvkI5hofngg>
12. <https://share.google/nuOT8aDUpl97uMmnT>